



UDK 324:321

**MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA SAYLOV JARAYONI VA
FUQAROLAR ISHTIROKI MUAMMOLARI**

Tojiboyeva Zohidaxon Yuldashboy qizi

*Andijon davlat Pedagogika instituti Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi) yo'nalishi 2-bosqich magistranti Andijon tumani O'zbekiston Respublikasi
E-mail zohidatojiboyeva0818@gmail.com*

**PROBLEMS OF THE ELECTORAL PROCESS AND CITIZEN PARTICIPATION IN
THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE**

Tojiboyeva Zohidaxon Yuldashboy qizi

2nd-year Master's student in the program Methodology of Teaching Social and Humanitarian Sciences (Legal Education) at the Andijan State Pedagogical Institute, Andijan district, Republic of Uzbekistan. E-mail: zohidatojiboyeva0818@gmail.com

**ПРОБЛЕМЫ ИЗБИРАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА И УЧАСТИЯ ГРАЖДАН В
ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ**

Тожибоева Зохидахон Юлдашбой кизи

Магистрантка 2 курса направления «Методика преподавания социально-гуманитарных наук (правовое образование)» Андижанского государственного педагогического института, Андижанский район, Республика Узбекистан. E-mail: zohidatojiboyeva0818@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida saylov tizimining shakllanishi, fuqarolarning saylov jarayonidagi ishtiroki hamda mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, saylov jarayonida yuzaga kelgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy jihatdan yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Saylov tizimi, saylov jarayoni, fuqarolar ishtiroki, demokratiya, ko'ppartiyaviylik, saylov qonunchiligi.*

Annotation: *This article analyzes the formation of the electoral system in Uzbekistan during the early years of independence, as well as the participation of citizens in the electoral process and the existing problems. The study also highlights the challenges observed in the electoral process and suggests possible ways to overcome them.*

Keywords: *Electoral system, electoral process, citizen participation, democracy, multiparty system, electoral legislation.*

Аннотация: *В данной статье анализируется формирование избирательной системы Узбекистана в первые годы независимости, участие граждан в*



избирательном процессе и существующие проблемы. Также рассматриваются трудности, возникавшие в ходе избирательного процесса, и предлагаются пути их решения.

Ключевые слова: Избирательная система, избирательный процесс, участие граждан, демократия, многопартийность, избирательное законодательство.

KIRISH

Markaziy Osiyo hududida qadim zamonlardan boshlab turli xalqlar va qabilalar yashab kelgan bo'lib, ular o'ziga xos ijtimoiy munosabatlar, urf-odatlar hamda boshqaruv an'alarini shakllantirgan. Tarixiy manbalarda sak-massaget qabilalari jamiyatida ham muayyan ijtimoiy tartib va boshqaruv tizimining mavjud bo'lganligi qayd etiladi [1; 84–85-b.]. Ushbu holat Markaziy Osiyo hududida jamiyatni tashkil etish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish an'analari qadimiy tarixiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tarixiy manbalarni tahlil qilish jamiyat, hokimiyat va ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi aloqalarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Tadqiqotlarda tarixiy matnlar nafaqat voqealarni aks ettiruvchi manba, balki muayyan davr siyosiy va ijtimoiy jarayonlarini tushunishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy asos sifatida ham baholanadi [2; 76–77-b.].

Adabiyotlar tahlili

Khudoyorov va Ro'ziboev tadqiqotida Sak-massaget qabilalarining tarixiy an'analari va ijtimoiy hayoti tahlil qilingan [1; 84–89-b.]. Ro'ziboev va Khudoyorov esa qadimgi tarixiy manbalarni zamonaviy yondashuvlar asosida talqin etgan [2; 76–87-b.]. Sadikova va Eshonqulov saylov huquqining zamonaviy imkoniyatlari hamda uning demokratik jarayonlardagi ahamiyatini ko'rsatib bergan [3].

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida saylov jarayonining huquqiy asoslari belgilangan [4]. Qadambayeva saylov tizimining asosiy xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan [5; 128–131-b.], Karimov esa demokratik taraqqiyotda saylov tizimining muhim o'rnini ta'kidlagan [6].

Tursunmuhammadov O'zbekistonda saylov tizimining tarixiy rivojlanish bosqichlarini yoritgan [7; 44–46-b.], Turayeva esa ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishini tahlil qilgan [8; 4–21-b.]. Haydarov saylov tizimining "o'zbek modeli" va uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatgan [9; 1–5-b.].

"Saylovlar va gender" qo'llanmasida fuqarolar, ayniqsa xotin-qizlarning saylovlardagi faolligi yoritilgan [10; 13–14-b.]. Nizamxodjayev nutqida saylovlarda ishtirok etish ko'rsatkichlari keltirilgan [11; 3-b.]. Jumaboyev va Tolibova esa fuqarolik jamiyati institutlarining demokratik jarayonlardagi rolini tahlil qilgan [12; 107–110-b.].

Metodologiya

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil hamda ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda saylov



tizimining shakllanishi, fuqarolarning saylov jarayonidagi ishtiroki va saylov qonunchiligi bilan bog'liq ilmiy manbalar o'rganildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar tahlili asosida saylov jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlab berildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda saylov tizimini shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilgani aniqlandi. Bu davrda saylov qonunchiligi yaratildi, ko'ppartiyaviylik tizimi shakllandi va fuqarolarning saylov jarayonidagi ishtiroki uchun huquqiy sharoitlar yaratildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida saylov madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, fuqarolarning siyosiy faolligining pastligi hamda huquqiy bilimlarning yetishmasligi kabi muammolar mavjudligi aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun saylov qonunchiligini takomillashtirish va fuqarolarning siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirish zarurligi asoslab berildi.

Muhokama

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatda demokratik saylov tizimini shakllantirish maqsadida saylov qonunchiligi bosqichma-bosqich takomillashtirib borildi. Xususan, saylov jarayonini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri bo'lgan Saylov kodeksida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis palatalari hamda mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq munosabatlar tartibga solinishi, shuningdek fuqarolarning o'z xohish-irodasini erkin bildirishini ta'minlovchi kafolatlar belgilab qo'yilgan [4; 1-2-b.]. 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi tarixida birinchi umumxalq Prezident saylovi o'tkazildi. Mazkur saylov mustaqil davlatning siyosiy tizimini shakllantirishda muhim bosqich bo'lib, xalq irodasining erkin ifodasiga asoslangan holda tashkil etildi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi esa mamlakat saylov tizimining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Unda fuqarolarning saylovlarda teng, bevosita va yashirin ovoz berish asosida ishtirok etishi kafolatlandi [7; 44-45-b.].

Saylovlar demokratik davlatlar taraqqiyotida va fuqarolarning siyosiy huquqlari tizimidamuhim konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida markaziy o'rin egallab kelgan. Aynan mazkurinstitut orqali fuqarolar bevosita yoki o'zlari saylagan vakillari timsolida davlat va jamiyatniboshqarish imkoniga ega [5; 129-b.]. Saylov demokratiyaning yorqin ifodasidir: "Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o'zaro birlashib ketgan. Saylov –demokratiya degani. Demokratiya —bu saylov degani" [6; 13-b.]

Demokratik davlatda va jamiyatda xalqning xohish-irodasi birlamchi manba sifatida e'tirof etiladi va unga og'ishmay amal qilinadi. Umumxalqsaylovlari orqali davlat hokimiyati organlarini shakllantirish demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Saylov xalq o'z hokimiyati vaxohish-irodasini to'g'ridan-to'g'ri ro'yobga chiqarishning oliy ifodasi, davlathokimiyati organlarini demokratik tarzda



tashkil etishning negizi hisoblanuvchi ulkan ijtimoiy-siyosiy tadbir [3; 2-b.]. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillikdan so'ng fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Xususan, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi [12; 2-3-b.].

1990-yillar boshidan boshlab mamlakatda bir qator siyosiy partiyalar tashkil etildi. Jumladan, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi hamda keyinchalik tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi faoliyat boshladi. Ushbu siyosiy partiyalar jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari manfaatlarini ifodalash orqali davlat hokimiyati organlarini shakllantirish jarayonida ishtirok eta boshladilar [8; 17-21-b.].

Milliy saylov tizimida saylovlar ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishi, siyosiy partiyalar va nomzodlar uchun teng sharoitlar yaratilishi, saylov jarayonining ochiqligi va oshkoraligi kabi demokratik tamoyillar mustahkamlandi. Shuningdek, saylov komissiyalarining mustaqilligi, saylov jarayoniga davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmasligi hamda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng imkoniyatlarning ta'minlanishi saylov jarayonining demokratik asoslarda tashkil etilishiga xizmat qildi [9; 3-b.].

O'zbekiston Respublikasida ham fuqarolarning saylovlarda ishtirok etish huquqi Konstitutsiya hamda saylovga oid qonunchilik bilan kafolatlangan. Unga ko'ra, 18 yoshga to'lgan har bir fuqaro saylovlarda ovoz berish, saylanish hamda saylov jarayonining turli bosqichlarida qatnashish huquqiga ega. Fuqarolar kelib chiqishi, ijtimoiy mavqei, jinsi, millati, dini yoki boshqa belgilaridan qat'i nazar saylov huquqlaridan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar [10; 13-14-b.].

Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga o'tkazilgan saylovlarda jami 15 million 27 ming 529 nafar saylovchi ovoz berishda qatnashgan bo'lib, bu umumiy saylovchilar sonining 74,72 foizini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich mamlakat fuqarolarining saylov jarayoniga nisbatan yuqori qiziqishi hamda siyosiy jarayonlardagi faolligini ko'rsatadi. Shuningdek, muddatidan oldin ovoz berish jarayonida mamlakat hududida 1 million 15 ming 948 nafar, xorijda esa 132 ming 667 nafar saylovchi ishtirok etgani qayd etilgan. Bundan tashqari, xorijda yashayotgan fuqarolar uchun tashkil etilgan saylov uchastkalarida 140 ming 388 nafar saylovchi ovoz bergan [11; 3-b.].

Mustaqillikning dastlabki yillarida saylov tizimini shakllantirish jarayonida bir qator muammolar kuzatildi. Avvalo, aholining saylov madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi sababli fuqarolarning saylov jarayonidagi faolligi nisbatan past bo'ldi. Shuningdek, fuqarolarning siyosiy va huquqiy bilimlari yetarli emasligi saylov



huquqlaridan to'liq foydalanishga to'sqinlik qildi. Bundan tashqari, saylovlarni tashkil etish jarayonida ayrim tashkiliy va texnik muammolar ham uchrab turdi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun saylov qonunchiligini takomillashtirish, saylov jarayonining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirish, saylov jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash zarur. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini kuchaytirish orqali fuqarolarning saylov jarayonidagi ishtirokini yanada faollashtirish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda saylov tizimini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni muhim siyosiy bosqich bo'ldi. Bu davrda saylov tizimining huquqiy asoslari yaratilgan bo'lsa-da, ayrim tashkiliy va ijtimoiy muammolar ham kuzatildi. Keyingi yillarda saylov qonunchiligini takomillashtirish, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyatini oshirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirish orqali saylov tizimi bosqichma-bosqich takomillashib bordi. Natijada fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlari kengaydi va demokratik jarayonlar yanada mustahkamlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Khudoyorov, N. M., Ro'ziboev, S. S. Traditions of the Sak-Massaget Tribes // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2024. – Vol. 26. – P. 84–89.

2. Ro'ziboev, S., Khudoyorov, N. Reconstructing Silent Voices in Ancient Historiography: Re-reading the Shiji through an Inclusive Artificial Intelligence Lens // AI & Antiquity: Journal of Teaching and Technology in Ancient Studies. – 2026. – Vol. 2, Issue 1. – P. 76–87.

3. Sadikova, Yo. S., Eshonqulov, I. I. Saylov huquqining yangicha imkoniyatlari // Ekonomika i sotsium. – 2023. – №7 (110). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/saylov-huquqining-yangicha-imkoniyatlari> (murojaat qilingan sana: 04.03.2026).

4. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi. – Toshkent, 2019. – URL: <https://lex.uz/docs/4386848> (murojaat qilingan sana: 04.03.2026).

5. Qadambayeva O.U. Saylov tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari // Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2024. – 1-jild, 8-son. – B. 128–131.

6. Karimov I. A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – Toshkent: O'zbekiston, 2005.

7. Tursunmuhammadov X. O'zbekistonda saylov tizimining rivojlanish tarixi (1991–2025) // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2024. – B. 44–46.



8. Turayeva Sh. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik: shakllanishi va rivojlanishi. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2015. – B. 4–21.

9. Haydarov Y.H. Saylov tizimining “o'zbek modeli” va uning o'ziga xos xususiyatlari. – Buxoro: Buxoro viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, 2011. – B. 1–5.

10. Saylovlar va gender: siyosatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning xalqaro va milliy amaliyotlari: uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2021. – B. 13–14.

11. Nizamxodjayev Z. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi raisining Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlarga saylovlarning dastlabki natijalariga bag'ishlangan matbuot anjumanidagi nutqi. – Toshkent, 2024. – B. 3. – URL: <https://saylov.uz> (murojaat qilingan sana: 04.03.2026).

12. Jumaboyev D.M., Tolibova S.O. O'zbekistonda fuqarolik jamiyat institutlarining ijtimoiy hayotdagi roli // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2024. – №2. – B. 107–110.